



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Ta’limda boshqaruv” mavzusida seminar-trening tashkil etish to‘g‘risida

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sifatini oshirish, boshqaruvda jamoa e’tiborini ta’lim sohasidagi muhim muammolarni hal etish bilan bog‘liq g‘oyalarga qaratish, shuningdek, yangi ta’lim siyosati, uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga munosabati va kasbiy qobiliyatlarini kuchaytirish, ta’lim tizimiga joriy qilinayotgan yangiliklarni quyi tizimgacha yetib borishini ta’minalash hamda vazirlik tizimidagi hududiy rahbar va ularning o‘rinbosarlari faoliyatiga yaqindan amaliy ko‘mak berish maqsadida **buyuraman:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari uchun joriy yilning 26-27-may kunlari Toshkent shahrida “Ta’limda boshqaruv” mavzusida seminar-trening tashkil qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Ta’limda boshqaruv” mavzusida seminar-trening dasturi 1-ilovaga muvofiq;

“Ta’limda boshqaruv” mavzusida seminar-treningni tashkil etish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga:

Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan “Ta’limda boshqaruv” mavzusidagi seminar-trening (keyingi o‘rnarda - seminar-trening) uchun o‘quv materiallarni tayyorlash;

mazkur seminar-treningda Prezident maktablari direktorlari ishtirokini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari, shuningdek, barcha Prezident maktablari direktorlari 2023-yil 26-may kuni o‘tkaziladigan ikki kunlik seminar-treningda ishtirok etish uchun Toshkent shahriga yetib kelsin.

5. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) seminar-treningni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

7. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

8. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

9. Xizmat safari bilan bog‘liq sarf-xarajatlar xodimlarning asosiy ish joyidan to‘lansin.

10. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “18”-may,
129-son